

***TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING ILMIY-
METODOLOGIK ASOSLARI***

**НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ
КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE
METHODOLOGY FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING**

Davlatova Lobarxon Zokirjon qizi

Namangan viloyati Chortoq tuman 47-maktab

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali

Boshlang'ich ta'lim 1-bosqich Magistranti

E-pochta: davlatovalobarxon4@gmail.com

Tel: +998943040492

Annotatsiya: Ushbu maqolaning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasining ilmiy-metodologik asoslarini aniqlash va nazariy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va tizimlashtirish, nazariy modellashtirish va interpretatsiya qilish metodlaridan foydalangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar orqali samarali amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, metodikaning kognitiv, refleksiv va motivatsion komponentlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot xulosalari shuni ko'rsatadiki, metodologik asoslarning aniq belgilanishi pedagogik jarayon sifatini va o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish samaradorligini oshiradi, shuningdek, kelajakdagi empirik tadqiqotlar uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Kalit soʻzlar: tanqidiy fikrlash, metodika, ilmiy-metodologik asoslar, boʻlajak oʻqituvchilar, innovatsion taʼlim, kompetensiya, pedagogik yondashuv, kognitiv komponent, reflektiv komponent, motivatsion komponent.

Abstract: The aim of this article is to identify and theoretically substantiate the scientific and methodological foundations of the methodology for developing critical thinking among future teachers. The study employed methods of analysis, comparison, and systematization of scientific and pedagogical literature, as well as theoretical modeling and interpretation. The results indicate that the methodology for developing critical thinking can be effectively implemented through systemic, competency-based, activity-oriented, and learner-centered approaches. The cognitive, reflective, and motivational components of the methodology are interrelated and play a significant role in enhancing the professional preparedness of future teachers. The study concludes that a clear definition of the methodological foundations improves the quality of the pedagogical process and the effectiveness of teaching critical thinking, and serves as a basis for future empirical research.

Keywords: critical thinking, methodology, scientific and methodological foundations, future teachers, innovative education, competence, pedagogical approach, cognitive component, reflective component, motivational component

KIRISH

Zamonaviy taʼlim tizimida shaxsning mustaqil va asosli fikrlashi, axborotni tahlil qilish, muammolarga tanqidiy yondashish kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Innovatsion taʼlim sharoitida boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy tayyorgarligida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ularning pedagogik faoliyatida samaradorlikni taʼminlovchi muhim omil sifatida namoyon boʻlmoqda.

Ilmiy-pedagogik manbalar tahlili shuni koʻrsatadiki, tanqidiy fikrlash masalasi turli tadqiqotlarda yoritilgan boʻlsa-da, uni rivojlantirish metodikasining ilmiy-metodologik asoslarini tizimli ravishda asoslash yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mavjud tadqiqotlarda metodikaning alohida jihatlari yoki amaliy texnologiyalari yoritilgan, biroq metodologik yondashuvlar, tamoyillar va nazariy asoslar oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik yetarlicha ochib berilmagan [2; 3].

Shuningdek, innovatsion taʼlim muhitida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasining konseptual asoslari, uning pedagogik jarayondagi oʻrni va takomillashtirish yoʻnalishlari oʻrganilmagan muammolar sirasiga kiradi. Bu esa mazkur yoʻnalishda chuqur nazariy tadqiqot olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasining ilmiy-metodologik asoslarini aniqlash va nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot maqsadiga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

- tanqidiy fikrlash tushunchasining ilmiy-pedagogik mohiyatini tahlil qilish;
- tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasining ilmiy-metodologik asoslarini aniqlash;
- metodikani takomillashtirishga xizmat qiluvchi asosiy metodologik yondashuvlarni belgilash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tanqidiy fikrlash muammosi xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng tadqiq etilgan bo‘lib, uning nazariy asoslari asosan kognitiv psixologiya va pedagogika fanlari doirasida yoritilgan. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish, baholash va rivojlantirish jarayoni bo‘yicha mavjud tadqiqotlar ilmiy nuqtai nazardan yetarlicha asoslangan, biroq ular ko‘pincha individual yondashuv va texnikalarni tavsiflash darajasida qolgan. Shu sababli, tanqidiy fikrlash metodikasining ilmiy-metodologik poydevorini tizimli tarzda aniqlash va kompleks tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida R. Ennis tanqidiy fikrlashni mantiqiy asoslangan qaror qabul qilish va baholash jarayoni sifatida talqin qilib, uning tarkibiy komponentlari va rivojlantirish mezonlarini batafsil asoslab bergan. Ennisning qarashlari bo‘yicha tanqidiy fikrlashni baholashda asosiy e‘tibor talabning qaror qabul qilish jarayonida qanchalik asosli va mantiqiy fikrlash qobiliyatini ko‘rsatishiga qaratiladi [1].

P. Fayson esa tanqidiy fikrlashni tahlil, interpretatsiya, baholash, xulosa chiqarish va refleksiya kabi kognitiv ko‘nikmalar majmui sifatida izohlaydi. U o‘z tadqiqotlarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda metodologik yondashuvlarning ahamiyatini alohida ta’kidlab, pedagogik jarayonda sistematik yondashuvni qo‘llashni tavsiya qiladi. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli vaziyatlar yaratish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish metodlari muhim ekanligi aniqlanadi [2].

R. Paul va L. Elder tadqiqotlarida tanqidiy fikrlash shaxsning intellektual intizomi va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish vositasi sifatida ko‘riladi. Ularning fikricha, tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonida ta’lim muhitida muammoli vaziyatlar yaratish, refleksiv faoliyatni tashkil etish va talabalarning o‘z qarorlarini asoslashga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. Shu tarzda, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat kognitiv qobiliyatlarni oshiradi, balki o‘quvchilarning analitik fikrlash, baholash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydi.

B. Bloom va uning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiya yuqori darajadagi tafakkur ko'nikmalarini, jumladan, tahlil, sintez va baholash orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasining nazariy poydevorini tashkil etadi. Bloomning taksonomiyasi o'quv jarayonida tanqidiy fikrlashni tizimli ravishda rivojlantirishga imkon beruvchi pedagogik vositalarni aniqlashga yordam beradi [4].

MDH mamlakatlari olimlaridan L.S. Vygotskiy, A.N. Leontev va P.Ya. Galperinlarning ilmiy qarashlarida tafakkur va faoliyat birligi, shuningdek, bilish jarayonining bosqichma-bosqich shakllanishi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasining psixologik asoslari sifatida e'tirof etiladi. Ularning nazariyalari ta'lim jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan va refleksiv yondashuvlarni qo'llash zaruratini asoslab beradi, bu esa talabalarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mahalliy pedagog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tanqidiy fikrlash asosan mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va kompetensiyaviy ta'lim bilan bog'liq holda o'rganilgan. Ayrim ishlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalar tavsiflangan bo'lsa-da, metodikaning ilmiy-metodologik asoslari, ya'ni yondashuvlar, tamoyillar va nazariy konsepsiyalar tizimli tarzda yetarlicha ochib berilmagan [8]. Shu bois, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasining ilmiy-metodologik asoslarini innovatsion ta'lim sharoitida nazariy jihatdan kompleks tahlil qilish dolzarb ilmiy masala sifatida qaraladi.

Mazkur tadqiqotda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasining ilmiy-metodologik asoslarini aniqlash va nazariy jihatdan asoslash maqsadida quyidagi metodlardan foydalangan: ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish; taqqoslash va umumlashtirish; tizimlashtirish; mantiqiy tahlil; ilmiy konsepsiyalarni interpretatsiya qilish; nazariy modellashtirish. Tadqiqot jarayonida tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan metodologik yondashuvlar asos qilib olindi. Ushbu yondashuvlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasining ilmiy-metodologik poydevorini belgilashga xizmat qildi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasining ilmiy-metodologik asoslari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan yondashuvlar, tamoyillar va nazariy komponentlar tizimidan iborat. O'tkazilgan nazariy tahlil asosida metodikaning metodologik poydevori sifatida quyidagi yondashuvlar aniqlandi: tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuvlar metodikaning mazmuni, shakl va vositalarini belgilashda asosiy omil

bo‘lib xizmat qilishi, shuningdek, ta‘lim jarayonida tanqidiy fikrlashni samarali shakllantirish imkonini beradi [1; 3].

Tadqiqot jarayonida tanqidiy fikrlash metodikasining asosiy komponentlari — kognitiv, reflektiv va motivatsion — o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Ularning har biri tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, kompleks tarzda qo‘llanilganda o‘quvchilarning intellektual va shaxsiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda tanqidiy fikrlashning nazariy model komponentlari, ularning metodik vazifalari va kutilayotgan natijalari ko‘rsatilgan:

Komponent	Metodik vazifasi	Kutilayotgan natija
Kognitiv	Axborotni tahlil qilish, solishtirish va asosli xulosalar chiqarish	Talabanning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish
Refleksiv	O‘z fikrini baholash, xatolarni aniqlash	Mustaqil fikrlash va o‘zini baholash qobiliyati
Motivatsion	Faoliyatga intilish, o‘rganishga qiziqish	Faol pedagogik pozitsiyani rivojlantirish

Tahlil natijalariga ko'ra, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasining samaradorligi bir qator omillarga bog'liq. Jumladan, ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, reflektiv faoliyatni tashkil etish va mustaqil tahlilga yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish asosiy shart sifatida ko'rsatildi. Ushbu yondashuvlar xorijiy tadqiqotchilar (R. Ennis, P. Facione, R. Paul va L. Elder) tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar bilan mos keladi va ularning taklif etgan metodologik asoslarini tasdiqlaydi.

Muhokama jarayonida shuningdek, mavjud pedagogik amaliyotda tanqidiy fikrlash ko'pincha alohida metod yoki texnika darajasida qo'llanilib, uning ilmiy-metodologik asoslari yetarlicha e'tibordan chetda qolayotgani aniqlanadi. Natijada, metodika fragmentar xarakter kasb etib, tizimli natijalarga erishish imkoniyatini cheklaydi [8; 9]. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotda ishlab chiqilgan metodologik model metodikani yaxlit va izchil tizim sifatida tashkil etishga, komponentlar va yondashuvlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda metodologik asoslarning aniq belgilanishi o'qituvchi tayyorlash jarayonida ta'lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu jihat tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatini mustahkamlaydi va kelgusidagi empirik tadqiqotlar uchun metodologik asos vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, metodologik yondashuvlar va komponentlarning sistematik qo'llanilishi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, bu esa zamonaviy innovatsion ta'limning asosiy talablariga to'liq mos keladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasining samaradorligini oshirish uchun:

1. Yondashuvlarni uyg'unlashtirish (tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga va shaxsga yo'naltirilgan);
2. Metodik komponentlarni integratsiyalash (kognitiv, reflektiv, motivatsion);
3. Ta'lim jarayonida interfaol, reflektiv va muammoli vaziyatlardan foydalanish zarur.

Bu jihatlar metodikaning amaliy samardorligini oshiradi, o'quv jarayonida tanqidiy fikrlashni samarali shakllantirishga yordam beradi va ilmiy-metodologik asoslarni nazariy jihatdan mustahkamlaydi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida tanqidiy fikrlash tushunchasi, uning kognitiv, refleksiv va motivatsion komponentlari, shuningdek, metodikaning ilmiy-metodologik asoslari tizimli tarzda aniqlab olindi.

Tahlil natijalariga ko'ra, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasining samarali ishlashi metodologik yondashuvlarning (tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan) uzviy bog'liqligiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Shuningdek, metodikaning konseptual modeli, pedagogik tamoyillari va metodologik mexanizmlari metodikani tizimli va samarali tarzda qo'llash imkonini beradi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasining ilmiy-metodologik poydevorini aniqlash va nazariy asoslash imkonini beradi. Amaliy ahamiyati esa, mazkur metodikani bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash jarayonida qo'llash orqali pedagogik jarayon sifatini oshirishga xizmat qilishida namoyon bo'ladi.

Kelajakdagi tadqiqotlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasining empirik tekshiruvi, turli pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyasi va samaradorlik mezonlarini aniqlashga qaratilishi tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Ennis, R. H. *Critical Thinking* / R. H. Ennis. — Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 2011. — 256 p.
2. Facione, P. A. *Critical Thinking: What It Is and Why It Counts* / P. A. Facione. — Millbrae, CA: California Academic Press, 2015. — 55 p.
3. Paul, R., Elder, L. *Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life* / R. Paul, L. Elder. — Upper Saddle River, NJ: Pearson, 2014. — 352 p.
4. Bloom, B. S. *Taxonomy of Educational Objectives. Handbook I: Cognitive Domain* / B. S. Bloom. — New York: Longman, 1956. — 210 p.
5. Vygotskiy, L. S. *Thinking and Speech* / L. S. Vygotskiy. — Moscow: Pedagogika, 1982. — 256 p.
6. Leontev, A. N. *Activity, Consciousness, and Personality* / A. N. Leontev. — Moscow: Politizdat, 1975. — 320 p.
7. Galperin, P. Ya. *The Psychology of Learning* / P. Ya. Galperin. — Moscow: Pedagogika, 1989. — 304 p.

8. Karimov, A. *Ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi* / A. Karimov. — Tashkent: O'zbekiston pedagogika universiteti, 2019. — 144 b.
9. Rustamova, N. *Pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar* / N. Rustamova. — Tashkent: Fan, 2020. — 128 b.
10. Xusanova, M. *Bo'lajak o'qituvchilarda tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish* / M. Xusanova. — Tashkent: O'qituvchi, 2021. — 112 b.